

**BOLALARDA IJODIY FAOLIYAT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
VOSITA VA USULLARI.**

Rayimqulova Dilfuza Yolchiboyevna

Annotatsiya: *Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi ijodiy qobiliyatni aniqlash va ularni to'g'ri faoliyatga yo'naltirish, ijodiy faoliyatni yanada rivojlantirish uchun qilinadiga ishlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'z: *ijod, ijodkorlik, qobiliyat, faoliyat, yangilik, kashf qilish.*

«Ijod» so'zining lug'aviy ma'nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so'zlariga monand keladi. Bugungi toboro rivojlanib borayotgan axborot asrida ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas. Kishilarda hususan bolalarda ilmiy, ijodiy faoliyat yuqori darajada o'z aksini ko'rsatmoqda. Ijodkorlik tadqiqotning yangi mavzusi emas. Insoniya yaralibdiki, qobiliyatli insonlar har doim ajralib turgan. Inson qobiliyatlari muammosi har doim odamlarda katta qiziqish uyg'otdi. Biroq, ilgari jamiyatda odamlar ijodini o'zlashtirishga alohida ehtiyoj yo'q edi. Ilmiy-texnik taraqqiyot davridagi hayot tobora rang-barang va murakkablashmoqda. Va bu odamdan odatiy emas, odatiy harakatlar, harakatchanlik, fikrlashning moslashuvchanligi, tezkor yo'nalishni va katta va kichik muammo-larni echishga ijodiy yondoshishning yangi shartlariga moslashishni talab qiladi. Insonlar har xil sohalarda bir-biridan ilhomlanib yangidan yangi ijodiy faoliyat turlarini kashf qilishmoqda. Yaratilayotgan ijod namunalarining chek chegarasi yo'q. Agar deyarli barcha kasblarda aqliy mehnatning ulushi doimiy ravishda o'sib borishini va ijro etuvchi faoliyatning ortib borayotgan qismi mashinalarga o'tishini hisobga olsak, insonning ijodiy qobiliyatlari uning aql-idrokining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerakligi va ularni rivojlantirish vazifasi zamonavi-ylikni tarbiyalashning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi ayon bo'ladi.

Qayerga qarama qaysidir soha yoki yo'nalishda rekord darajada yangilik kiritayotgan bolalarni ko'rishimiz mumkin. Ha ular siz va bizning atrofimizdagi jaji bolalar kabi oddiy bolalar. Ularning farqi shundaki, ularda hudo yuqtirgan qobiliyat bor. Bu qobiliyatni to'g'ri anglab, ularni to'g'ri yo'naltirish, olamshumul g'alabalarga olib keladi. Bolada ilk ijodiy qobiliyat maktabgacha tarbiya davrida biroz namoyon bo'la boshlaydi. Vaqt o'tib bola ilk qadamlarini maktab ostonasiga qo'yar ekan u endi ko'p narsani aqlan idrok etib tushuna boshlaydi. Qiziqishi va qobiliyatlarini namoyon etadi. Bu paytda pedagogik jamoadan boladagi ijodiy qobiliyatni ma'lum faoliyatga yo'naltirishga sharoit yaratib kabi mas'uliyat yuzaga keladi. Agar bola chap qo'lda bo'lsa, unda u ijodiy ehsonga ega bo'lishi mumkin, chunki bunday chaqaloqlarda hukmronlik qiladigan o'ng yarim shar ijodkorlik, mavhum fikrlash va rivojlangan

tasavvur uchun javobgardir. Chap qo'llar asosan rassomlar, shuningdek, raqqosalar va mu-siqachilar bo'lishi mumkin.

Ijodiy mahorat - bu ma'lum bir ijodiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini bel-gilaydigan va uning samaradorligi darajasini belgilaydigan individual individual xususiyatlar majmui. Ular shaxsning bilimi, ko'nikma va malakalari bilan cheklanib qolmaydi. Ijodiy qobiliyatlar qiziqish, intilish va ijodga hissiy munosabat bilan namoyon bo'ladi, chunki bilim, ijodiy izlanishda bilim, mantiqiy va ijodiy fikrlash, tasavvur, mustaqillik va qat'iyatlilik darajasi va ma'lum bir sohada sub'ektiv ravishda yangi yaratilishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.
2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.
3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish.
4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Mazkur bosqichdaga ishlar to'g'ri tashkil etilsa bolaning ijodiy faoliyati yanada rivojlanib yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. SHaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunday ekan zamo-namizga munosib ijodkor, intiluvchi, iqtidorli kadrlarni yaratish biz pedagoglarning asosiy maqsadimizdir. Yur-timizda biz yoshlarga yaratilgan ikoniyatlardan unumli foydalanmog'imiz darkor. Eng muhimi yurtga kerakli far-zandlar bo'laylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bolalarning ijodiy tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha taqdimot. Toshkent 2019.
2. Dialektik fikrlashni rivojlantirish o'yinlari. Uslubiy qo'llanma.
3. © serviceproekt.ru